

TA'LIMDA INNOVATSION MOBILLIK VA UNING MOHIYATI

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna

*Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti doktoranti (DSc)*

Annotatsiya

Mazkur maqolada, oliy ta'lim tizimida mobillik tushunchasi va uning turlari, shaxsning mobilligi, pedagogik mobillik hamda innovatsion mobillik tushunchalari mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, innovatsion mobillik darajalari o'rganilib tahlil qilingan. Ta'lim tizimida salohiyatli kadrlarni tayyorlashda pedagoglarni jarayonga tezda moslasha olish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'limga moslashtira olish, pedagogik kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish, ta'limga kreativ yondasha olish qobiliyatlarini shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, mobillik, innovatsiya, innovatsion mobillik, innovatsion mobillik darajalari, harakatchanlik, tez harakat qilish, o'zgarish, moslashish, shaxsning mobilligi, pedagogik mobillik

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmonida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori



malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish¹ masalalari keltirilgan. Mazkur farmon ijrosini ta'minlash bevosita oliy ta'lim tizimi kadrlarini kasbi yuzasidan malakasini hamda innovatsion faolligini oshirishni nazarda tutadi.

Jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish o'qituvchidan o'zining ijtimoiy ahamiyatga molik missiyasini amalga oshirishda mobillikni talab qiladi. Bu xususiyat innovatsion mobillik atamasini aniqroq aks ettiradi. Bugungi kunda pedagoglardan aynan innovatsiya sohasida professional mobillik talab etiladi.

Pedagogik kasbiy faoliyatni amalga oshirish, shaxsga ma'lum talablar qo'yadi: u kasbiy jihatdan barkamol, ijtimoiy moslashgan, faol va boshqa sifatlarga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, o'qituvchi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi va doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ishlay olishi kerak bo'lgan jihati aynan "mobillik" deb belgilanadi.

Umumiy ilmiy ma'noda mobillik (lotincha mobilis - mobil) - bu harakatchanlik, tez harakat qilish, o'zgarish va moslashish qobiliyatidir.

"Mobillik" atamasi pedagogika fanida nisbatan yaqinda o'zlashtirila boshlangan bo'lsada, bu tushuncha inson hayotining ko'plab sohalarida keng tarqalgan hisoblanadi. Mobillik odatda subyektning atrof-muhitda tezda harakat qilishi, zarur faoliyat shakllarini topishi, tez o'zgarishlar va o'zaro ta'sir qilish qobiliyati sifatida tushuniladi. Shuningdek, mobillikning turli shakllarini ham ko'rish mumkin. Jumladan,

Shaxsning mobilligi – insonning o'zgaruvchan sharoitlarga tezda javob berish qobiliyati, shuningdek, ichki qayta qurish, uning ruhiy tuzilishi, qadriyat yo'nalishlari, motivlari, munosabati va aloqalarini o'zgartirishi tushuniladi. Shaxsning mobilligi shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirishdagi doimiy, ijobiy maqsadli faoliyati sifatida, ushbu faoliyatda sifat o'zgarishlariga olib keladigan qobiliyat sifatida hamda zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yangi sharoitlari va texnik imkoniyatlariga moslasha oladigan mutaxassis sifatida ham ko'rib chiqiladi.

¹ "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni



Sotsial mobillik – individ yoki ijtimoiy guruhning jamiyat ijtimoiy tuzilmasida tutgan o'rni, joyini (sinf, ijtimoiy guruhga mansublik va hokazo) o'zgartirishida ijtimoiy harakatchanligini nazarda tutadi. Ushbu hodisa bois kishining jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi o'zgarib boradi².

Pedagogik mobillik – o'qituvchining kasbiy ahamiyatli xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan birgalikdagi pedagogik faoliyatni tashkil etishga yordam beradigan kasbiy, moslashuvchan, shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi, bunda uning ijodiy, innovatsion va madaniy - qadriyat tomonlari namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda pedagogik mobillikning bir nechta turlari ajratilgan bo'lib, bular:

ijtimoiy-iqtisodiy - pedagogning o'zgaruvchan mehnat bozori sharoitlariga moslashishga tayyorligi va qobiliyati;

psixologik - pedagogning o'z qadriyat yo'nalishlarini, motivlarini, ichki munosabatlarini o'zgartirish va shu tufayli hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez javob berish qobiliyati;

kasbiy - pedagogning o'z kasbi doirasidagi yangi texnika, texnologiyalarni tez va muvaffaqiyatli o'zlashtirish qobiliyatini tavsiflovchi, kerak bo'lganda, kasbiy ierarxiyadagi harakatni hisobga olgan holda, tegishli va yangi kasblarni o'zlashtirishi;

marketing - o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish qobiliyati va boshqalar;

innovatsion - pedagogik ta'limda innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyati;

kognitiv - o'qituvchining pedagogik vaziyatni boshqarishi va kognitiv muammolarni faol, moslashuvchan va ijodiy hal qilish qobiliyati;

akademik - talabalar va o'qituvchilar, shuningdek, mahalliy va xorijiy universitetlar o'rtasida xalqaro kasblararo hamkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq

² V.M. Hamrayeva Sotsial mobillik tushunchasining sotsiologik mazmuni. "Научный импульс" Международный научный журнал № 13 (100), часть 1. Сентябрь, 2023



bo'lib, bunga faqat ta'lim sifati va bilim darajasi yuqori bo'lgan taqdirdagina erishish mumkin.

Mobillik va innovatsiya bu umumiy ilmiy tushunchalar bo'lib, umuminsoniy o'zgaruvchanlik, jamiyatning doimiy rivojlanishi va shaxsning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabati yo'llari haqidagi falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Innovatsion mobillik darajalari – bu pedagoglarning innovatsion yondashuvlarni qabul qilish, moslashish va ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etishdagi tayyorgarlik va qobiliyatlarini ifodalovchi bosqichlardir. Bu darajalar o'qituvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishi, texnologiyalarni qo'llashi va o'z malakalarini rivojlantirish jarayonini tavsiflaydi.

Innovatsion mobillik darajalarini oshirish davomiy jarayon bo'lib, pedagogning o'zini rivojlantirishga bo'lgan tayyorligi va kasbiy maqsadlariga bog'liq. Har bir daraja malaka oshirish kurslari, treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlantirilishi mumkin hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagoglarning innovatsion mobilligini rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- 1. Raqamli transformatsiya omili** – raqamli texnologiyalar pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom), sun'iy intellekt vositalari va raqamli kontentlar pedagogdan yuqori darajadagi raqamli kompetensiyani talab qiladi. Shu sababli innovatsion mobillikning muhim komponenti sifatida **raqamli savodxonlik** ajralib turadi.
- 2. Uzluksiz kasbiy rivojlanish** – innovatsion mobillik pedagogning doimiy o'rganishga tayyorligi bilan belgilanadi. Malaka oshirish kurslari, xalqaro treninglar va onlayn platformalar pedagogning yangi bilimlarni egallashi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishi, kasbiy refleksiyasini rivojlantirishiga xizmat qiladi.
- 3. Kreativ va reflektiv faoliyat** – innovatsion pedagog muammoli vaziyatlarni hal qila oladi, o'z faoliyatini tahlil qiladi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqadi.

Refleksiya innovatsion mobillikning ichki mexanizmi bo'lib, pedagogning o'z faoliyatini baholashi va takomillashtirishiga yordam beradi.

4. Xalqaro tajriba va akademik mobillik – OECD, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar tajribasi pedagoglarning global kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Akademik almashinuv dasturlari pedagoglarning yangi metodlarni o'rganishi, innovatsion tajribalarni transfer qilishi, global fikrlashni shakllantirishiga xizmat qiladi.

5. Ta'lim ekotizimi ta'siri – raqamli ta'lim ekotizimi (platformalar, resurslar, hamkorlik muhitlari) pedagogning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. Bu esa innovatsion mobillikni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

innovatsion mobillik pedagogning zamonaviy ta'lim tizimidagi asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat pedagogning o'zgarishlarga moslashuvchanligini, balki innovatsion faoliyat yuritish qobiliyatini ham belgilaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion mobillikni rivojlantirish pedagoglarning kasbiy samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

2. V.M.Hamrayeva Sotsial mobillik tushunchasining sotsiologik mazmuni. “Научный импульс” Международный научный журнал № 13 (100), часть 1. Сентябрь, 2023

3. Xoshimxodjaeva, M., & Rasuleva, M. (2023). Innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim sohasida qo'llash. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnali, 3(10), 39–42.

4. <https://ahaslides.com/uz/blog/15-innovative-teaching-methods/#what-are-innovative-teaching-methods>

